

KICHIK BIZNESDA TRANSPORT-LOGISTIKA JARAYONLARINI ALTERNATIV MOLIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Ismoilov Narimonjon No'monjon o'g'li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,
“Biznes Boshqaruvi” kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarida transport-logistika tizimini rivojlantirishda alternativ moliya ekotizimining (*leasing, factoring, fintech kreditlash*) ahamiyati yoritilgan. *Leasing, factoring va fintech moliyalashtirish manbalari transport-logistika jarayonlarini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish hamda yetkazib berish ishonchligini oshirish orqali kichik biznes raqobatbardoshligini kuchaytirishi ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Kichik biznes, alternativ moliya, factoring, transport-logistika tizimi, logistika samaradorligi.*

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi transport-logistika tizimining transformatsiyasini tezlashtirib, kichik biznes subyektlari uchun yangidan yangi imkoniyatlar yaratib kelmoqda. Umuman olganda transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish va aktivlarini yangilash ko'p moliyaviy resurslarni talab qilishini hisobga olsak, an'anaviy bank kreditlarida foiz stavkalarining yuqoriligi va hujjat ishlarining ko'pligi ba'zan kichik biznesni ulardan foydalanishda cheklovlar yuzaga keltirishi ham hechkimga sir emas. Bu sharoitda alternativ moliya ekotizimi kichik biznes subyektlarining logistika tizimini rivojlantirishda muhim moliyaviy dastak sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi alternativ moliya instrumentlarining kichik biznes transport-logistika tizimini rivojlantirishdagi ro'li hamda mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Ushbu maqolada bank kreditlariga yuqori darajada bog'liqlik, banklardan kredit olish vaqt ta'lab qilishini hisobga olsak, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishni cheklashi va shu sababli moliya manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligi ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, alternativ moliya instrumentlari kichik biznes logistika tizimini rivojlantirishda muhim moliyaviy mexanizm sifatida baholanadi. Bu fikr logistika tizimi samaradorligi moliyaviy oqimlar barqarorligi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlagan amerikalik iqtisodchi olim Douglas M. Lambert qarashlari bilan ham uyg'un hisoblanib, u ta'minot zanjirlarida moliyaviy integratsiya logistika samaradorligini oshirishini takidlaydi. (Lambert, 2019). Bundan tashqari, fintech kreditlash va raqamli moliya platformalari kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini tezlik bilan qondira olishini hisobga olgan holda logistika operatsiyalarini

uzluksiz moliyalashtirish imkonini yaratadi.(Claessens, 2018). Bu esa transport-logistika xarajatlarini tezlik bilan qoplash, transport vositalarini ta'mirlash va yetkazib berish jarayonlarini optimal tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda factoring kabi moliyaviy dastaklar kechiktirilgan to'lovlar muammosini tezlik bilan hal qilib, aylanma mablag' barqarorligini ta'minlash orqali logistika jarayonlarida yuzaga keladigan moliyaviy uzilishlarni oldini oladi. Transport vositalarini ta'mirlash va yangilash logistika samaradorligini oshirib, yetkazib berish tezligi va ishonchliligini kuchaytiradi. (Leaseurope, 2023). Natijada, logistika samaradorligining oshishi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini mustahkamlashga va bozorda o'z o'rniga ega bo'lgan xolda o'z faoliyatini olib borishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, mavjud ilmiy qarashlar factoring, leasing va fintech kreditlash kabi alternativ moliya instrumentlari kichik biznes transport-logistika tizimini rivojlantirishda muhim moliyaviy omillar sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada kichik biznes subyektlari transport-logistika jarayonlarini alternativ moliya asosida moliyalashtirish masalasi nazariy va amaliy manbalarni tahlil qilish orqali o'rganildi. Factoring, leasing va fintech instrumentlarining logistika samaradorligiga ta'siri taqqoslash va 2021-2025-yillar kesimda mavjud statistik ma'lumotlar tahliliy usullar yordamida baholandi.

1-jdaval

Alternativ moliyaning logistika samaradorligiga ta'siri

Alternativ moliya turlari	Logistika jarayoniga ta'siri	Natija
Factoring	Aylanma mablag'ni tezlashtiradi	Yetkazib berish uzluksizligi
Lizing	Transport aktivlarini yangilaydi	Xarajatlar kamayishi
Fintech kredit	Tezkor moliyalashtirish	Operatsion barqarorlik
Raqamli to'lovlar	To'lov jarayonini tezlashtiradi	Pul aylanmasi yaxshilanishi

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko'rinadiki, alternativ moliya instrumentlari transport-logistika jarayonlariga bevosita va turli yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi. Factoring aylanma mablag' aylanish tezligini oshirish orqali yetkazib berish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi. Lizing transport aktivlarini yangilash imkonini berib, ekspluatatsiya xarajatlarini sezilarli darajada kamayishiga xizmat qiladi. Fintech kreditlash tezkor moliyalashtirish orqali operatsion barqarorlikni kuchaytiradi, Shunday qilib, alternativ moliya mexanizmlari logistika samaradorligining uch asosiy ko'rsatkichiga likvidlik, aktivlar samaradorligi va operatsion barqarorlikka kompleks ta'sir ko'rsata oladigan omillar hisoblanadi.

Mustaqillik yillaridan beri O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini tashqi moliyalashtirish tizimida an'anaviy bank kreditlari muhim o'rinni egallab kelmoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillarda alternativ moliya mexanizmlariga

bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Xususan, lizing, faktoring va fintech kreditlash kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga tez va oson erishish imkoniyatini yaratmoqda. Kichik biznes subyektlarida transport-logistika jarayonlarini rivojlantirish ko'pincha aylanma mablag' yetishmovchiligi, transport vositalarini yangilash zarurati va yetkazib berish uzluksizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Alternativ moliya instrumentlari bu muammolarni hal qilishda muhim dastaklar sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslari bilan ta'minlash strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki so'ngi yillarda Yalpi ichki mahsulotning qariyb 52%dan oshig'i kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilayotgani hechkimga sir emas.

2-jadval

O'zbekistonda bank kreditlari va kichik biznes uchun ulushi dinamikasi trln so'mda(2021-2025).

Yil	Yuridik kreditlar jami	Kichik biznes kreditlari	Kichik biznes kreditlarining jami kreditlardagi ulushi	Alternativ moliya (Mikro va Lizing)	Alternativ moliyaning kichik biznes kreditlaridagi ulushi
2021	252.70	64.10	25.40%	11.20	17%
2022	284.40	78.50	27.60%	13.50	17%
2023	318.80	91.20	28.60%	17.80	20%
2024	355.60	108.40	30.50%	24.30	22%
2025	395.00	131.20	33.20%	32.50	25%

Yuqorida 2-jadvalda 2021-2025-yillar davomida O'zbekistonda bank kreditlaridan foydalanish darajasini o'sib borishi ifodalangan. Ko'rishimiz mumkinki jami kreditlar 2021-yilda 252.70 trln so'mni tashkil qilgan bolsa bu 2025-yilga kelib 395.00 trln ga ko'tarilgan. Bunda kichik biznes uchun yo'naltirilgan kreditlar ham 5 yil mobaynida 2 barobarga oshganini ko'rishimiz mumkin va bu 2025-yilga kelib 131.20 trln so'mni tashkil etgan. E'tibor qaratadigan joyi shundaki, yildan yilga alternativ moliya manbaalaridan foydalanish ham o'sib bormoqda. 2021-yilda kichik biznes o'z moliyaviy kamchiliklarini yil davomida jami 11.2 trln so'm miqdorida alternativ manbalar hisobiga qondirgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilga kelib yiliga 32.5 trln so'mgacha oshganini korishimiz mumkin. Shu sababli, transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi amaliy choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- lizing xizmatlarini yanada soddalashtirish;
- sug'urta to'lovlariga imtiyozlar berish;
- tezkor raqamli mikroqarz tizimini joriy etish;
- islomiy moliya instrumentlarini kengaytirish;

- faktoring xizmatlarini rivojlantirish;

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilgan taqdirda kichik biznes vakillarining moliyaviy manbalarga bo'lgan talabi yanada tezkor va qulay tarzda qondiriladi. Bu esa ularning aylanma mablag' bilan ta'minlanishini yaxshilab, transport-logistika jarayonlarini barqaror tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada kichik biznes subyektlarining faoliyati samaradorligi oshib, ularning iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda an'anaviy bank kreditlari asosiy moliyalashtirish manbai bo'lib qolayotgan bo'lsada, lizing, faktoring, fintech va boshqa alternativ moliya instrumentlari logistika samaradorligini oshirishda muhim qo'shimcha mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Alternativ moliya vositalarining keng qo'llanilishi aylanma mablag' barqarorligini ta'minlash, yetkazib berish uzluksizligini ta'minlash va natijada kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, alternativ moliya mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash kichik biznesda transport-logistika tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lambert D. M. *Supply Chain Management: Processes, Partnerships, Performance*, 2019, 45–47-betlar.
2. Claessens S., Frost J., Turner G., Zhu F. *Fintech credit markets around the world*, *BIS Quarterly Review*, 2018, 30–31-betlar.
3. Sergeev V. I. *Logistika*, 2018, 52–55-betlar.
4. *Leaseurope. The role of leasing in SME development*, 2023, 2-bet.
5. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Bank kredit portfelda statistikasi (2021–2025 yillar) muallif hisob-kitoblari.*

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA RAQAMLASHTIRISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI

Sherbekova Kamola Norbekovna

Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Raqamli banklar va an'anaviy banklar o'rtasidagi quyidagi farqlarni sanab o'tish mumkin. Raqamli banklarning asosiy xususiyatlari: o'zining filiallar tarmog'ini kengaytirishga ehtiyojning yo'qligi; bank va iste'molchi o'rtasida 100% masofaviy-onlayn aloqalar o'rnatilganligi; sifatli va qulay mobil ilovaning mavjudligi; omonat (depozit) va kreditlar bo'yicha jozibador foiz stavkalarining shartlarning mavjudligi; sifatli, qulay va uzluksiz ishlovchi "iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash markazlari"ning mavjudligi.